



DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL AND METHODOLOGICAL SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY IN FUTURE PRIMARY TEACHERS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS

Abdullayeva Nargiza Roxatliyevna
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti

Abstract

This article analyzes the process of forming and developing creative activity in future primary teachers based on the requirements of international assessment programs. The study covers the requirements for the development of competencies such as creative thinking, problem solving, and logical-creative approach in international assessment systems such as PISA, PIRLS, and TIMSS, in combination with the content of educational and methodological support. The article substantiates the effective ways of integrating methodological tools, task systems, reflexive-analytical exercises, and innovative educational technologies into the teacher training process. The results obtained show that increasing the professional competence of future teachers and supporting creative activity through practice-oriented educational and methodological support is an important factor.

Keywords: Future primary school teacher, creative activity, international assessment programs, PISA, PIRLS, TIMSS, competency approach, innovative educational technologies, educational and methodological support, creative thinking, pedagogical competence.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, global raqobat muhiti va xalqaro baholash dasturlari talablarining kuchayib borishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini yangi pedagogik yondashuvlar, innovatsion fikrlash va kreativ faoliyat asosida tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Boshlang'ich ta'lim — o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, tafakkuri, mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatining shakllanishida poydevor bosqich sanaladi. Shu sababli, ushbu bosqichda faoliyat yurituvchi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik madaniyati hamda kreativ faoliyat ko'nikmalari ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.



So‘nggi yillarda xalqaro baholash dasturlari — PISA, PIRLS, TIMSS kabi tizimlar o‘quvchilarning faqat bilim hajmini emas, balki ularning tahliliy, ijodiy, mantiqiy va muammoli vaziyatlarga ijodkorona yondashish qobiliyatini baholashga yo‘naltirilmoqda. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida kreativ faoliyatni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etadi. O‘qituvchining kreativ yondashuvi dars mazmunini yangicha tashkil etish, interaktiv metodlardan samarali foydalanish, o‘quvchilarni faol fikrlashga, izlanishga va yangilik yaratishga undashga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda o‘quv-metodik ta‘minotni modernizatsiya qilish, kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar, mashg‘ulotlar, refleksiv tahlil metodlari, muammoli vaziyatlar asosidagi o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlarida qo‘llaniladigan yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan metodik materiallar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va kreativ salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari, xalqaro baholash dasturlari talablari bilan uyg‘unlashtirilgan o‘quv-metodik ta‘minotni takomillashtirish yo‘llari, shuningdek, mazkur jarayonning ta‘lim sifatiga ta‘siri ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik ta‘lim jarayonini modernizatsiya qilish, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasini samarali amalga oshirish va innovatsion pedagog kadrlarni tayyorlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish bugungi zamonaviy ta‘lim jarayonining eng muhim talablardan biri bo‘lib, bu jarayon ta‘lim tizimining mazmunini yangilash, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari talablari bilan uyg‘unlashtirilgan metodik asoslarni yaratish, talabalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, yangicha pedagogik qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va ta‘lim amaliyotiga samarali tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy-pedagogik izlanishlar, innovatsion metodlar va kompetensiyaga asoslangan ta‘lim texnologiyalarining qo‘llanilishi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida kreativ yondashuvning shakllanishi, ularning zamonaviy o‘quv muhitida mustaqil, tashabbuskor va ijodkor mutaxassis sifatida kamol topishi, shuningdek, boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois kreativ faoliyatni rivojlantirish nafaqat o‘qituvchi tayyorlash jarayonida, balki butun



ta'lim tizimi taraqqiyotida strategik ahamiyat kasb etadi, chunki kreativlik bilimlarni qayta ishlab chiqish, yangicha pedagogik g'oyalar yaratish, ta'lim jarayonida moslashuvchan yondashuvni qo'llash, shuningdek, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro baholash dasturlari — PISA, PIRLS, TIMSS kabi yirik baholash tizimlari ta'lim natijalarini faqat an'anaviy bilim ko'rsatkichlari asosida emas, balki o'quvchilarning amaliy vaziyatlarda fikr yuritish, muammolarni hal qilish, ijodiy va tanqidiy yondashuv asosida qaror qabul qilish, muloqot va hamkorlikda ishlash, turli hayotiy holatlarni tahlil qilish qobiliyatlarini baholash orqali aniqlaydi, bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida yangi metodik yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Ushbu dasturlarda aks etgan kompetensiyalar ta'lim mazmunining amaliy yo'naltirilgan bo'lishi, bilimning hayotiy vaziyatlarda qo'llanishi, kreativ fikrlashga tayanilgan topshiriqlar tizimini yaratish, talabalarda refleksiya, tahlil, baholash va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi, shu sababli o'quv-metodik ta'minotni modernizatsiya qilish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Xalqaro baholash dasturlari asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish, o'quvchi shahsini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini zamonaviy pedagogik mezonlarga moslashtirish imkonini beradi.

Kreativ faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minot mazmuni muammoli-ijodiy topshiriqlar, tadqiqotga asoslangan o'qitish, loyiha faoliyati, keys-stadi tahlillari, interaktiv mashg'ulotlar, refleksiya asosida tahlil, baholash va o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini o'z ichiga olgan integrativ pedagogik tizim sifatida shakllantiriladi. Bunday metodik ta'minot nafaqat o'quv jarayonini tashkil etadi, balki talabaning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy tashabbusi, erkin fikrlashi, kasbiy refleksiyasi, innovatsion pedagogik g'oyalarni qo'llashga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, shuningdek, pedagogik faoliyatning real amaliyotiga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. O'quv-metodik majmualarda kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi savollar tizimi, vaziyatli mashqlar, muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar, tahliliy muammolar, ijodiy loyihalar, hamkorlikda ishlashni talab qiluvchi mashg'ulotlar ustuvor o'rin egallaydi va ular talabaning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kreativ kompetensiyalarni shakllantirishda muammoli-izlanishli ta'lim, evristik suhbat, refleksiv tahlil mashg'ulotlari, o'yinlashtirilgan pedagogik modellar,



raqamli ta'lim platformalari, interaktiv resurslar, simulyatsiya mashqlari, hamkorlikda loyiha yaratish texnologiyalari, pedagogik tadqiqot faoliyatiga jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish yuqori natija beradi, chunki bunday metodlar talabani fikrlash jarayonini faollashtiradi, ijodiy izlanishga undaydi, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish imkonini yaratadi. Shuningdek, bu metodlar talabalarda mas'uliyat, tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish, o'z faoliyatini tahlil qilish, o'z ustida ishlash va kasbiy rivojlanishga intilish kabi fazilatlarni shakllantiradi, bu esa zamonaviy pedagog shaxsining muhim sifatlariga qatoriga kiradi.

Kreativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimning samaradorligini baholashda o'qituvchining ijodiy tafakkur darajasi, yangi pedagogik vaziyatlarda noodatiy yechim taklif qila olish qobiliyati, darsni innovatsion uslubda tashkil etish mahorati, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish imkoniyatlari, refleksiya va o'z-kasbiy tahlil madaniyati, shuningdek, xalqaro baholash standartlariga mos kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida e'tiborga olinadi. Ushbu ko'rsatkichlarning ijobiy o'sishi bo'lajak pedagoglarda kreativ faoliyatning shakllanganligi, metodik ta'minotning ta'lim sifati va kasbiy kompetensiyalarga samarali ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi, bu esa tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ faoliyatni xalqaro baholash dasturlari talablari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasida, talabalarning ijodiy fikrlash darajasi, muammoli vaziyatlarda pedagogik yechim ishlab chiqish qobiliyati, mustaqil va erkin qaror qabul qilish ko'nikmalari, yangicha pedagogik g'oyalarni ilgari surish hamda ularni amaliyotda qo'llashga bo'lgan intilishi sezilarli darajada oshgani, shu bilan birga ularning kasbiy refleksiya, tahlil, baholash va o'z faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan mas'uliyatli munosabati shakllangani kuzatildi. Natijalardan ko'rinishicha, kreativ faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimi, loyiha asosida o'qitish, vaziyatli mashqlar, refleksiv tahlil texnologiyalari va xalqaro baholash yondashuvlari bilan uyg'unlashtirilgan metodik materiallar talabalarda kasbiy-kreativ salohiyatning bosqichma-bosqich rivojlanishiga, ularda innovatsion pedagogik fikrlashni qaror toptirishga, shuningdek, ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuv asosida kirishish ko'nikmasini mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatdi.



O'tkazilgan kuzatuv, diagnostika va monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar an'anaviy ta'lim asosida o'qigan nazorat guruhi talabalari bilan solishtirilganda, kreativ fikrlash, mustaqil izlanish, pedagogik muammolarga noodatiy yondashish, o'quvchilarning faol fikrlashini rag'batlantirish, interaktiv metodlardan ongli foydalanish, dars mazmunini ijodkorona tashkil etish bo'yicha yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega bo'ldi, bu esa yaratilgan o'quv-metodik ta'minotning samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Shuningdek, tajriba natijalari metodik tizimni ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish o'qituvchi shaxsining kreativ salohiyatini faollashtirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda rivojlantirish, shuningdek, boshlang'ich ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Tadqiqot yakuniy natijalari shuni anglatadiki, kreativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan, xalqaro baholash dasturlari talablari bilan uyg'unlashtirilgan o'quv-metodik ta'minot nafaqat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi, balki ularning shaxsiy ijodiy faolligi, pedagogik tashabbusi, yangilik yaratishga bo'lgan motivatsiyasi, zamonaviy o'quv jarayonida faol subyekt sifatida shakllanishini ham ta'minlaydi va bu holat ta'lim tizimi rivoji uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minot nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi, balki talabalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim ishlab chiqish va yangi pedagogik g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlari — PISA, PIRLS, TIMSS kabi tizimlar asosida ishlab chiqilgan metodik materiallar bo'lajak pedagoglarni zamonaviy ta'lim talablariga moslashtirish, ularning kreativ salohiyatini rag'batlantirish va kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Olingan natijalar shuni ham ko'rsatadiki, metodik tizimning muvaffaqiyati o'quv-metodik materiallarning integratsiyaligi, topshiriqlar va mashg'ulotlarning muammoli-ijodiy xarakteri, refleksiv tahlil va baholash mexanizmlarining mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, ular bo'lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida kreativ faoliyatni rag'batlantiruvchi metodlar, loyiha asosida o'qitish, interaktiv va simulyativ mashg'ulotlar, o'yinlashtirilgan texnologiyalar hamda innovatsion pedagogik resurslar samarali tarzda joriy etilishi lozim.



Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda xalqaro baholash dasturlari talablari bilan uyg'unlashtirilgan o'quv-metodik ta'minotning joriy qilinishi ta'lim sifatini oshirish, pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, talabalarning kreativ va innovatsion faolligini kuchaytirish, shuningdek, ularni zamonaviy pedagogik amaliyotga tayyorlash jarayonini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Natijada, bu yondashuv nafaqat o'quvchilarda, balki bo'lajak o'qituvchilarda ham yangi pedagogik fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va o'z faoliyatini doimiy takomillashtirish madaniyatini shakllantiradi va butun ta'lim jarayoni sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishni xalqaro baholash dasturlari asosida tashkil etish — pedagogik ta'limning strategik yo'nalishi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, u zamonaviy ta'limning talablariga javob beradigan innovatsion, kompetensiyaga yo'naltirilgan va ijodiy faollikka asoslangan ta'lim tizimini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов, У. Ш. "О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ." (2022): 202-206.
2. Abdurahmonov, U. "FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEKANIKA MA'NOLARI." *Журнал интегрированного образования и исследований* 1.6 (2022): 135-138.
3. Абдурахмонов, У. Ш. "О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА." *E Conference Zone*. 2022.
4. Sh, Abdurakhmanov U. "The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.11 (2022): 142-150.
5. Абдурахманов, Умиджон, Ормоной Тошматова, and Хуснида Мелиева. "Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning zamonaviy didaktik



vositalari va muammoli ta'lim texnologiyasi." *Общество и инновации* 3.3 (2022): 231-238.

6. Abdurahmonov, U. "EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKAR USULIDAN FOYDALANISH." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.12 (2022): 1239-1242.

7. Shoqosimo'g'li, AbduraxmonovUmidjon. "The importance of didactic games in teaching mathematics in secondary schools." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3 (2022): 1566-1570.

8. Abduraxmonov, U. S., and D. No'monova. "UMUMTA'LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO'LLANILISHI." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.9 (2023): 160-165.

9. Abdurahmanov, U. S. "Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 2.3 (2023): 20-24.

10. Abduraxmonov, Umidjon, and Shohista Musayeva. "BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI." *University Research Base* (2024): 91-92.

11. Sh, Abduraxmonov U., and S. A. Umarjonova. "TA'LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI." *University Research Base* (2024): 95-96.

12. Abduraxmonov, Umidjon. "UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI." *University Research Base* (2024): 93-94.

13. Abduraxmonov, Umidjon, and Muslima Temirova. "BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYA. O'QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO'NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNING ROLI." *University Research Base* (2024): 87-88.

14. Sh, Abduraxmonov U., and Z. A. Valijonova. "BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV." *University Research Base* (2024): 89-90.

15. Umidjon, Abdurakhmanov. "CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS'COGNITIVE INTERESTS." *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN* 6.5 (2023): 357-362.



16. Абдурахманов, Умиджон. "АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ." *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN* 6.5 (2023): 363-369.
17. Umidjon, Abdurakhmanov, and Melikoziyeva Oghiloy. "SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES." *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS* (2023): 341.